

## O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzlusiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning SSV 2025 yil 14 avgustdaggi № IXT – 166 dastur tasdiqlash ro'yhatiga asosan tasdiqlangan.*

*Amal qilish muddati 2030 yil gacha*

<b>Ta'lim muassasasi nomi</b>	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
<b>Kafedra/ bo'lim</b>	Xirurgiya va bolalar xirurgiyasi kafedrasi
<b>O'quv dastur nomi</b>	Operativ-diagnostik endoxirurgiya
<b>O'qish turi</b>	Ixtisoslashtirish
<b>O'quv dastur mualliflari</b>	X.A.Akilov- t.f.d., professor, kafedra mudiri , Sh.A.Nizomov - t.f.n., dotsent, F.Sh.Primov - t.f.d., dotsent.
<b>Siklning umumiy soati</b>	504 kredit

### Dars o'tuvchi pedagoglar



X.A.Akilov t.f.d., professor, kafedra mudiri	F.A.Dautov t.f.d, dotsent	F.Sh.Primov t.f.d., dotsent	R.R.Saatov t.f.n., dotsent	Sh.A.Nizomov t.f.n., dotsent	A.M.Fayziev. assistant
---	---------------------------------	-----------------------------------	-------------------------------	---------------------------------	---------------------------

<b>Maqsad</b>	Bolalar xirurglarini professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda xirurgik kasalliklarini davolashda zamonaviy xamda dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar diagnostikasi, operativ davolash ishlari bo'yicha so'nggi ma'lumotlar asosida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish va yangilash.
---------------	--

<b>Siklga taklif qilingan mutaxassislar – kontingent</b>	- Bolalar xirurglari va xirurglar
--	-----------------------------------

<b>Dastur vazifalari</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>Kasallikning paydo bo'lish omillari va kasallik manbaini aniqlanishi bilan shoshilinch kasalliklar tahlilini o'tkazish</li><li>Shoshilinch jarrohlikda umumiy xirurgik masalalarni o'zlashtirish</li></ul>
--------------------------	--

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Kukrak va kukrak kafasini a'zolarini ochik va yopik jaroxatlarida torakoskopik jarroxlik usullarini egallash</li> <li>• Qorin bo'shlig'i a'zolari shoshilinch jarroxlik kasalliklarini erta tashhislash va yordam ko'nikmalarini o'zlashtirish</li> <li>• Jigar, o't yo'llari va oshqozon osti bezi tezkor jarrohlik kasalliklarida shoshilinch yordam ko'nikmalarini egallash</li> <li>• Gepatobiliaropankreatik sistema jarrohligida tezkor kasalliklarini etiopatogenetik mexanizmlarini bilish va yordam ko'nikmalarini ko'rsatish qibiliyatiga ega bo'lish.</li> <li>• O'tkir pankreatit, uning diagnostika va davolashdagi zamonaviy texnologiyalar ko'nikmalarini amalga oshirish</li> <li>• Oshkozon va 12 barmokli ichak kasalliklarida qo'llaniladigan tezkor jarroxlik amaliyotlarini jaxon standartlari asosida yerdam berish ko'nikmasiga ega bo'lish</li> <li>• Ginekologik kasalliklarda endovideoxirurgik operatsiyalar o'tkazish ko'nikmasini o'zlashtirish</li> <li>• Urologiyada endovideoxirurgik operatsiyalar o'tkazish ko'nikmasini egallash</li> </ul>
<b>Modullar</b>	<p>Modul 1. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish Konsepsiysi. Siklning tashkiliy masalalari..</p> <p>Modul 2. Operativ diagnostik endoxirgiyada umumiy xirurgik masalalar. Aseptika va antiseptika Tezkor jarrohlikda og'riqsizlantirish usullari. Laparoskopik jarroxlik. Rivojlanish tarixi, zamonaviy xolati va tarakkiyoti. Korin bushligi punksiyasi. Videolaporoskop ta'sir burchagi..</p> <p>Modul 3 Korin bushligi a'zolari o'tkir jarrohlik kasalliklari va jarohatlari. Korin oldi devori anatomiysi va uning laparoskopiya operatsiyalarda axamiyati. Jigar, o't yo'li va me'da osti bezining klinik anatomiysi va fiziologiyasi. Jigar, o't yo'llari va oshqozon osti bezi tezkor jarrohlik kasalliklari. O't-tosh kasalligi va uning asoratlari. Mexanik sariqlik va miniinvaziv davolash usullari. Yiringli xolangit. Biliar pankreatit, klinikasi, diagnostika va davolash.</p> <p>Modul 4. Gepatobiliar sistemasi tezkor jarrohlik kasalliklarida klinik-instrumental, radiologik va funksional tekshirishusullari. RXPG,EPST. Unga ko'rsatma va texnikasi. Diagnostik laparoskopiya va laparoskopik operatsiyalar paytidagi asoratlar. Laparoskopik xolesistektoniya. O't yo'llari jarrohligida rekonstruktiv tiklash operatsiyalari. Operatsiya texnikasi. Asoratlari</p> <p>Modul 5. Jigardan tashkari o't yo'llari laparoskopik operatsiyalari. Topografo-anatomikasoslash. Asbob-uskunalar. Operatsiya texnikasi. Intraoperatsion xolangiografiya. Ut kopi yuli</p>

	<p>va umumiy ut yulini drenajlash asoratlari</p> <p>Modul 6 O'tkir pankreatit, uning diagnostikasi va davolashdagi zamonaviy texnologiyalar. Laparoskopik operatsiyaga kursatma. Laparoskopik operatsiya usullari va texnikasi</p> <p>Modul 7. Oshqozon va 12 barmokli ichak yarasi va ularning asoratlari. Oshqozon va 12 barmokli ichak xirurgik anatomiysi, fiziologiyasi. Oshqozon va 12 barmokli ichak yara kasalligi klinikasi, diagnostikasi va maxsus-zamonaviy tekshirish usullari. Laparoskopik appendektomiya. Operatsiya texnikasi. Asoratlari.</p> <p>Modul 8. Qorin bo'shlig'i a'zolarini ochik va yopik shikastlanishlari. Klinik-instrumental tekshiruvlar. Zamonaviy diagnostika texnologiyalarning roli va axamiyati: ultratovush, rentgen va MSKT tekshiruvlar. Diagnostik laparoskopiyaga kursatmalar. Laparoskopik gemostaz usullari. Mezenterial kon aylaninishining utkir buzilishi, ichak tomirlari trombozi. Endovideoxirurgik diagnostika va davolash ishlarini olib borish imkoniyati. O'tkir peritonit va uning zamonaviy davolash usullari. Laparoskopiyanı diagnostika va davolashda axamiyati.</p> <p>Modul 9. Yugon ichakda laparoskopik operatsiyalar. Kursatma va karshi kursatma. Operatsiya texnikasi va asbob-uskunalar. Asoratlari va uning profilaktikasi. Laparoskopik operatsiyadan so'nggi umumiy va spesifik asoratlar, uning profilaktikasi va diagnostikasi</p> <p>Modul 10. Ginekologik kasallikkarda endovideoxirurgik operatsiyalar</p> <p>Modul 11. Urologiyada endovideoxirurgik operatsiyalar (urug tizimchasi venalari varikoz kengayishida, buyrak kistasi va usmalarida, nefroptozda, siydik-tosh kasalligida)</p> <p>Modul 12. Kukrak va kukrak kafasi a'zolarini ochik va yopik jaroxatlari. Klinika, zamonaviy diagnostika usullari. Torakoskopiyaga kursatmalar va jarroxlik usullari.</p>
<b>O'qish bazalari</b>	<p>TXKMRM klinikasi</p>  <p>RShTYoIM</p> 

## **Simulyatsion asbob/uskunalar**

